



ABDULLA QAHHOR VA CHEXOV HIKOYALARIDA "KICHIK  
ODAM" TASVIRI

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti*

*Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Abduhamidova Sarvinoz*

*Annotatsiya : Ushbu maqolada o'zbek hikoyanavisi Abdulla Qahhor va rus adibi Anton Chexovning asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ularning asarlaridagi "kichik odam" obrazi, taqdiri va jamiyatdagi o'rni o'zaro muvofiq holda yoritiladi. Shuningdek, yozuvchilar yashagan muhit va uning asarlari mazmuni, personajlar xarakteriga ta'siri o'rganiladi.*

*Kalit so'zlar: satira, yumor, badiiy obraz, kinoya, ierarxiya, ijtimoiy muhit.*

*Annotation: In this article, a comparative analysis is conducted on the works of the uzbek short story writer Abdulla Qahhor and the Russian author Anton Chekhov. The image, fate, and social status of the "little man" in their works are highlighted in relation to one another. Furthermore, the influence of the environment in which the writers lived on the content of their works and the character of their personages is studied.*

*Key words: satire, humor, artistic image, irony, hierarchy, social environment.*

**Kirish/**

O'zbek hikoyachiligiga ulkan hissa qo'shgan Abdulla Qahhor o'zining yumoristik uslubi, qisqa va lo'ndaligi, **kichik detallar orqali dolzarb** muammolarni aks ettira olishi bilan, yana bir buyuk hikoyanavis Anton Chexovni yodga soladi. Ularning qahramonlari, qalamga olgan ijtimoiy-siyosiy muammolar ham bir qarashda o'xshashdek tuyuladi. Ayniqsa, ularning hikoyalarida, gohida ojiz, gohida esa sodda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmagan "kichik odamlar" taqdiri markaziy o'rinda turadi. Mana shu o'xshash jihatlar ikki xalq adabiyotidagi qahramonlar qismatini mushtarak nuqtada birlashtiradi va bizga inson qadrini anglatadi.



Asosiy qism.

Abdulla Qahhorning ko'pgina hikoyalarida "kichik odam" obrazi markaziy o'rin tutsa-da, "O'g'ri" hikoyasi o'zining keng qamrovi, achchiq yumori, kishi qalbiga o'zgacha ta'sir qiladigan, uni o'ylashga majbur qiladigan ruhi bilan ajralib turadi. Asarning asosiy voqeasi soda, adolatsiz tizim qurboni Qobil boboning ho'kizi yo'qolishidir. Qobil bobo ho'kizini topish ilinjida aminga, tilmochga, so'ngra pristavga murojaat qiladi. Uydagi bor-budini sotib, amaldorlarning og'ziga tutadi. Bobo ho'kizni topish yo'lida, undanda ko.proq narsani yo'qotadi. Bu hikoyada asl "o'g'ri" ho'kizni olib ketgan shaxs emas, insofsiz amaldorlar ekanligi fosh etiladi. Hikoya Qobil bobo orqali chorasiz, soda, mansabdorlar quliga aylangan savodsiz "kichik odamlar"- qora xalqning taqdirini aks ettiradi. Ijodkorning tasvirlash usuli, achchiq yumori beixtiyor kishida o'sha davr insonlariga nisbatan achinish, shafqat uyg'otadi. Qobil boboning fojiasi uning kambag'alligida emas, balki adolat izlab adolatsizlik uyasiga kirib qolgani, mansab egalarini "najotkor" deb bilgani, huquqiy savodsizligidadir. Aytish mumkinki, bu nafaqat Qobil boboning, balki jamiyat, millatning baxtsizligidir. Bu ochko'z hukmron tabaqa minglab "Qobil bobo" larni qonini ichgan, bor bisotini "talagan". Asarning maqsadi shu g'oyalarni o'quvchiga yuqtirishdir. "Abdulla Qahhorning epic tasvir mahoratiga oid yana bir fazilatini ta'kidlab o'tish kerakki, yozuvchi hikoyalarida shaxs taqdiri muhit, sharoit bilan hamda omma hayoti bilan mustahkam bog'liq holda beriladi, shaxs taqdirining shakllanishi-yu yo'nalishini belgilashda bu omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi". (X.U.Urokov)

Mashhur rus namoyandasi Anton Pavlovich Chexovning "Amaldorning o'limi" asari "O'g'ri hikoyasiga mazmun jihatdan ham, g'oya jihatdan ham, satirik uslubi bilan ham yaqin. Asarning bosh qahramoni Chervyakov Qobil bobodan farqli o'laroq mansab egasi bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan ko'p farq qilmaydi. Hikoya Chervyakovning opera tomosha qilayotgani va to'satdan general Brizjalovga qarata aksirib yuborishi bilan boshlanadi. Aksirish-tabiiy hol, biroq Chervyakov "hurmatli shaxs"ga so'lak sachratgani uchun o'zini ayblay boshlaydi. General uchun esa bu arziyas narsa bo'lib, tezda unutadi. Qahramonimiz qayta-qayta uzr so'raydi, hatto



generalni bezor qilish darajasiga yetadi. Shu orqali Chervyakovning xarakteri o'quvchiga anglashiladi : u o'zini yuqori tabaqa vakili oldida past sanaydi, inson tabiatiga xos oddiy hodisani fojia darajasiga ko'taradi, uni ichki qo'rquv, qullik hissi boshqaradi. Yozuvchi ushbu qahramon orqali jamiyatdagi asarning "O'g'ri" nosog'lom ierarxiyani ochib beradi. Bu esa „kichik odam“-Chervyakovning o'limiga olib keladi. Bu asaridan farqli jihati shundaki, Qobil bobo o'zining savodsizligi, huquqlaridan bexabarligi uchun mansabdorlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lgan bo'lsa, Chervyakov ongli ravishda laganbardorligi, general oldida "ulkan xijolatchilik" sababli "halok bo'ldi".

"Chexov o'z zamonasida salbiy faktlar bilan to'la bo'lgan turmushni aks ettirib, o'lmas hikoyalar yaratdi. Bizning zamonamiz ijobiy faktlarga to'la. Biz bu faktlardan abadiy qoladigan haykallar yaratishga erishishimiz kerak". (A. Qahhor. Qizil O'zbekiston», 1939 yil, 14 iyul)

Yozuvchilar Qobil bobo va Chervyakov orqali o'zlari yashagan muhitdagi tabaqalanish, adolatning yo'qolib borayotgani, oddiy xalqning o'z haq-huquqlarini bilmasligi va foydlana olamasligini tasvirlaydi. Millatning og'riqli nuqtasi bo'lgan illatlarni fosh qiladi, achchiq yumor, kinoya orqali jiddiy masalalarni ko'taradi. Shu sababli ham ular ko'zlagan maqsadlariga erishadilar: adolatsizlikka qarshi nafrat o'quvchiga yuqadi.

## **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor va Anton Chexov ijodidagi "kichik odam" obrazlari turli ijtimoiy-siyosiy muhit mahsuli bo'lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi mushtarak jihatlar mavjud. Har ikki yozuvchi ham o'z qahramonlari fojiasi orqali jamiyatdagi illatlarni-amaldorlar oldidagi qo'rqinch, huquqsizlik va inson qadrining toptalishini keskin satira ostiga oladi.

Qahorning Qobil bobosi ijtimoiy himoyasizlik va soddalik qurboni sifatida tasvirlansa, Chexovning Chervyakovi o'zining ichki qullik psixologiyasi tufayli halokatga uchraydi. Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, yozuvchilarning maqsadi shunchaki bir inson fojiasini ko'rsatish emas, balki kitobxonni va u orqali jamiyatni uyg'otish, insoniy g'urur va mustamlakaga qarshi nisbatan nafrat hissini



shakllantirishdir. Bu esa asarlarning bugungi kun o'quvchisi uchun ham dolzarbligini ta'minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhor, A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-1989.
2. Chexov, A.P. Polnoe sobranie sochineniy i pisem v 30 tomakh. - Moskva: Nauka, 1974-1983.
3. Yo'ldoshev, Q. Yoniq so'z. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.